



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 217 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабиржанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbayeva Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	



YOSHLAR SANOAT VA TADBIRKORLIK ZONALARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI BANK KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH

Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Korporativ biznes departamenti direktor o‘rinbosari

Elektron pochta: djamolova@sqb.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining bank kreditlari orqali moliyalashtirish mexanizmi aks ettirilgan. Mavjud muammolarni aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, yoshlar, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari, infratuzilma, imtiyozli kredit, investitsiya loyihalar, bank kreditlari, biznes-reja.

Abstract: This article analyzes the process of financing investment projects implemented in youth industrial and entrepreneurship zones through bank loans. The study identifies existing problems and develops scientifically grounded proposals aimed at their resolution.

Key words: global economy, youth, youth industrial and entrepreneurship zones, infrastructure, preferential loans, investment projects, bank credits, business plan.

Аннотация: В данной статье проведён анализ процесса финансирования инвестиционных проектов, реализуемых в зонах молодёжной промышленности и предпринимательства, посредством банковских кредитов. Выявлены существующие проблемы и разработаны научно обоснованные предложения по их устранению.

Ключевые слова: глобальная экономика, молодёжь, зоны молодёжной промышленности и предпринимательства, инфраструктура, льготный кредит, инвестиционные проекты, банковские кредиты, бизнес-план.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va innovatsion g'oyalarini amalga oshirishga ko'maklashish har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni qo'llab-quvvatlash orqali mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarini barqarorlashtirish mumkin.

O'zbekistonda bu yo'nalishda qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan tashkil etilgan “yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonolari” (YOSTZ) yoshlarga qulay infratuzilma, imtiyozli kreditlar va huquqiy ko'mak orqali o'z biznesini yo'lga qo'yishga sharoit yaratib bermoqda. Bu zonalar nafaqat ish o'rinlarini yaratish, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qilmoqda.



Shu bilan birga, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish masalasi, ayniqsa bank kreditlari orqali mablag' jalb qilish jarayonida murakkabliklar kuzatilmoqda. Yosh tadbirkorlar ko'p hollarda ta'minot, kredit tarixining yo'qligi, biznes-reja tayyorlashda tajribaning yetishmasligi kabi to'siqlarga duch kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Sh.Karimov o'z ilmiy izlanishlarida «yosh tadbirkorlikni moliyalashtirishda bank kreditlarining ahamiyati, kredit resurslariga kirish imkoniyatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri tahlil qilingan»¹.

O.Mirzayev ilmiy tadqiqotlarida «kichik va o'rta biznesda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni va kredit berish mexanizmlari o'rganilgan. Yosh tadbirkorlar uchun bank kreditlari sohasidagi to'siqlar va ularni kamaytirish yo'llari muhokama qilingan»².

S.Ikromova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda «sanoat zonalaridagi investitsiya loyihalariga bank kreditlari orqali moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda loyihalarni moliyalashtirish usullari va ularning bozordagi raqobatbardoshligi tahlil qilingan»³.

Xorijiy tadqiqotchilardan John Smith o'z ilmiy izlanishlarida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishi va uni moliyalashtirishda bank kreditlarining o'rni tushuntirilgan. Yosh tadbirkorlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, ularga bank kreditlari orqali qanday yordam berish mumkinligi tahlil qilingan. Xususan, tadqiqotchi ta'kidlashicha, «yosh tadbirkorlar kredit olishda yuqori riskga ega bo'lib, banklar uchun kredit xavfi yuqori hisoblanadi. Kredit tavakkalchiliklarini baholashda yosh tadbirkorning moliyaviy tayyorgarligi, loyiha samaradorligi va bozor sharoiti katta ahamiyatga ega»⁴.

Yoshlar tadbirkorligining mohiyati borasida shuni alohida qayd etish lozimki, Yoshlar tadbirkorligi – bu 18-30 yosh oralig'idagi shaxslar tomonidan yuritiladigan, ijtimoiy va iqtisodiy qiymat yaratadigan, yangilikka asoslangan tadbirkorlik faoliyatidir. Ushbu faoliyat nafaqat iqtisodiy manfaat keltiradi, balki yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, bandlik muammolarini yechishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, yosh tadbirkorlar ko'pincha innovatsion yondashuvga ega bo'ladi va texnologiyalarni jadal qo'llashga moyil bo'lishadi. Biroq ularning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari cheklangan bo'lgani sababli, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari hisobotlari, Davlat statistika qo'mitasi va Yoshlar ishlari agentligi rasmiy ma'lumotlar bazalaridan olindi. Olingan ma'lumotlar dinamik qatorlar, taqqoslash va korrelyatsion-regression tahlil usullari orqali qayta ishlanib, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida bank kreditlari orqali moliyalashtirish samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

YOSTZlar mohiyatan iqtisodiy maxsus zonalarining bir ko'rinishi bo'lib, ularda yoshlar uchun biznes yuritishga zarur bo'lgan infratuzilma, imtiyozli ijara shartlari, subsidiyalar va moliyaviy resurslar taklif etiladi.

YOSTZ tushunchasi kelib chiqishi bo'yicha institutsional iqtisodiyot nazariyasi, inson kapitali nazariyasi va tadbirkorlik faoliyatining innovatsion modellariga asoslanadi. Institutsional yondashuvga ko'ra, iqtisodiy subyektlarga qulay muhit yaratish orqali ularning faolligini oshirish mumkin. Inson kapitali nazariyasi esa bilim, salohiyat va mahoratni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish imkonini taqdim etadi.

Mavzuning muhim tarkibiy qismi sifatida «investitsiya loyihasi tushunchasi»ni ham ko'rib o'tish lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya loyihasi – bu muayyan iqtisodiy samarani olish maqsadida moliyaviy, mehnat va moddiy resurslarni safarbar etish orqali amalga oshiriladigan tashkiliy, texnologik va moliyaviy harakatlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi. Investitsiya loyihalari uzoq muddatli xarajatlar va investitsiyalar orqali qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiyotning har qanday sohasida amalga oshirilishi mumkin.

Yoshlar tadbirkorligida investitsiya loyihalari aksariyat hollarda kichik biznes yoki startap shaklida bo'lib, innovatsion g'oyalarga asoslangan, tez o'sayotgan va investitsiya manbalarini izlashda faol yo'l tutadi (1-jadval).

1 Karimov Sh. "Yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish mexanizmlari va bank kreditlari roli" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent., 2020-y. 34 b.

2 Mirzayev O. "Kichik va o'rta biznes loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish muammolari va yechimlari" mavzusidagi PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent., 2019-y. 33 b.

3 Ikromova S. "Sanoat zonalarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda moliyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi" mavzusidagi DSc dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent., 2019-y. 33 b.

4 John Smith. "Youth Entrepreneurship Financing through Bank Credits: Risk and Opportunity Management". 2018. Journal of Small Business Finance



1-jadval. YOSTZlarida bank kreditlari orqali moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini turlicha asoslarga ko'ra tasniflash⁵

№	Tasniflash asosi	Tasnif turlari	Izoh
1	Funksional maqsadi bo'yicha	- ishlab chiqarish loyihasi - ijtimoiy loyiha	Foyda olish yoki ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lishiga qarab
2	Moliyalashtirish manbai bo'yicha	- davlat - xususiy - xorijiy - qo'shma (mixed)	Loyiha qaysi moliyaviy manba hisobidan amalga oshirilganini ko'rsatadi
3	Geografik joylashuvi bo'yicha	- lokal - milliy - xalqaro	Qaysi hududda amalga oshirilishi
4	Investitsiya obyekti bo'yicha	- real aktivlarga yo'naltirilgan - nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan	Jismoniy obyekt yoki intellektual mulk bo'yicha farqlanadi
5	Tavakkalchilik darajasi bo'yicha	- past - o'rtacha - yuqori	Moliyaviy, bozor va texnik xavf darajalari
6	Amalga oshirish muddati bo'yicha	- qisqa (1-3 yil) - o'rtacha (3-5 yil) - uzoq (5 yildan ortiq)	Loyiha amalga oshishiga ketadigan vaqt
7	Sanoat sohasi bo'yicha	- qishloq xo'jaligi - energetika - texnologiya - turizm va boshqalar	Qaysi iqtisodiy sohada faoliyat yuritishini ko'rsatadi
8	Innovatsion darajasi bo'yicha	- an'anaviy - innovatsion	Yangi texnologiyalar yoki yondashuvlarni qo'llash darajasi
9	Qiymat miqyosiga ko'ra	- mayda loyiha (10 mlrd so'mgacha) - o'rta loyiha (10–100 mlrd so'm) - yirik loyiha (100 mlrd so'mdan yuqori)	Loyihaning umumiy kapital talabiga qarab tasniflanadi

Bunday tasniflash investitsiya loyihasining tabiati, risk darajasi va moliyaviy yechimlarini aniqlashda yordam beradi. Tadbirkorlar va moliya institutlari loyihani tanlashda ana shunday ko'rsatkichlarga tayanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2021-yilda davlat rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan YOSTZlar bu jarayonda tub burilish yasadi. Ushbu zonalar orqali yoshlar uchun biznes yuritishda qulay shart-sharoitlar, infratuzilma va moliyaviy ko'mak mexanizmlari yaratildi.

YOSTZ faoliyati quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5088-son⁶ qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yildagi tegishli qarorlari.

Ushbu hujjatlar asosida yoshlarga maxsus ajratilgan yer maydonlari, imtiyozli ijara shartlari, subsidiyalar va kredit kafolatlari shaklida ko'mak ko'rsatilishi belgilangan.

2022–2025-yillar davomida O'zbekistonda har bir viloyat va tuman markazida kamida bittadan YOSTZ tashkil etildi. 2023-yil yakunidagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston bo'ylab 200 dan ortiq YOSTZ tashkil etilgan. Ularda 10 mingdan ortiq yosh tadbirkor loyihasi joylashtirilgan. 25 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan. YOSTZlar ko'p tarmoqli bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda yoshlar biznes loyihalari amalga oshirilmoqda:

- to'qimachilik va yengil sanoat;
- ozuq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- axborot texnologiyalari va xizmat ko'rsatish sohalari;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash.

Ayniqsa, IT va startap loyihalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Farg'ona va Toshkent shaharlaridagi YOSTZlarda texnoparklar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

⁵ Muallif ishlanmasi

⁶ <https://lex.uz/docs/-5383002>



YOSTZlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi institutlar faoliyat yuritadi:

Yoshlar ishlari agentligi — yoshlar tanlovini tashkil etadi, g'oyalarni saralaydi;

Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi — kredit kafolati, subsidiya va grantlar ajratishda ishtirok etadi;

Tijorat banklari — imtiyozli kredit ajratishda davlat bilan hamkorlik qiladi;

Hududiy hokimliklar — yer ajratish, infratuzilmani ta'minlash va amaliy yordam ko'rsatishda ishtirok etadi.

Bank kreditlari orqali moliyalashtirishning ahamiyati. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bank kreditlari eng muhim moliyalashtirish manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu moliyaviy instrument tadbirkorga o'z g'oyasini tez fursatda amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va daromadni qisqa muddatda ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston bank tizimida tadbirkorlik subyektlari, jumladan yoshlar uchun mo'ljallangan quyidagi asosiy turdagi kreditlar mavjud (2-jadval):

2-jadval. Tadbirkorlik subyektlari, jumladan yoshlar uchun mo'ljallangan kreditlarning asosiy turlari⁷

№	Kredit turi	Tavsifi
1	Imtiyozli investitsiya krediti	7–14% foiz stavkasida, 3–5 yillik muddatda, garovsiz yoki kafolatli
2	Oborot mablag'lari krediti	Qisqa muddatli (6–12 oy), xom ashyo va materiallar sotib olish uchun
3	Mikrokreditlar	50–100 mln so'mgacha, soddalashtirilgan talablar bilan, yakka tadbirkorlarga
4	Garantiyalı kreditlar	Davlat yoki agentliklar tomonidan kafolatlangan, garovsiz kreditlar
5	Islomiy moliya (halol kredit)	Foizsiz, "mudaraba" yoki "ijara" asosida amalga oshiriladi (ayrim banklarda)

YOSTZlarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligiga bog'liq. Bu jarayonda yoshlar tijorat banklariga ariza topshiradi, biznes-reja baholanadi, keyin kafolat mexanizmlari ishga tushadi va axborot majburiyatlari bilan moliyalashtirish amalga oshiriladi. Amaldagi moliyalashtirish mexanizmlari orqali yoshlar sanoat zonalaridagi tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlar tadbirkorligi sohasida moliyalashtirish resurslariga bo'lgan talab juda yuqori, lekin kredit olishdagi to'siqlar yoshlarning biznesini rivojlantirishda katta cheklov bo'lib qolmoqda. Banklar tomonidan qo'yilayotgan likvid garov talablari ko'pincha yoshlar uchun qiyinchilik tug'diradi, bu esa investitsiya loyihalarining moliyalashtirilishini cheklaydi. Yoshlar orasida moliyaviy savodxonlikning pastligi, biznes-reja tuzishdagi kamchiliklar, shuningdek, kreditlardan samarali foydalanishga to'siq bo'ladi. Axborot asimmetriyasi va ma'lumotlarga kirish imkoniyati cheklanganligi banklar va yosh tadbirkorlar o'rtasida ishonchni susaytiradi. Qishloq hududlarda moliyaviy infratuzilma yetishmasligi yoshlar uchun bank xizmatlaridan teng foydalanish imkoniyatini cheklaydi.

Bu boradagi ishlar samaradorligini ta'minlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish borasida davlat tomonidan yoshlar tadbirkorligiga mo'ljallangan imtiyozli kreditlar va subsidiyalar hajmini oshirish, shuningdek, kafolat mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Xususiy banklarni yoshlar loyihalariga kredit berishga jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va regulyator rag'batlari joriy etilishi kerak. Moliyaviy savodxonlik va ta'lim dasturlarini kengaytirish borasida YOSTZlarda va boshqa tadbirkorlik markazlarida biznes-reja tayyorlash, loyiha boshqaruvi va moliyalashtirish bo'yicha bepul ta'lim va treninglar tashkil etish muhim. Yoshlarning moliyaviy ko'nikmalarini oshirish uchun onlayn ta'lim platformalari yaratish va ushbu sohadagi kontentni rivojlantirish zarur.

Axborot platformalari va raqamli yechimlarni joriy etish sohasida barcha moliyalashtirish dasturlari, kredit shartlari va grant imkoniyatlari haqida ma'lumotni birlashtirgan "Yagona moliyaviy ma'lumot platformasi" yaratish mumkin. Qishloq hududlarda moliyaviy xizmatlarga raqamli kirish imkoniyatini ta'minlash uchun FinTech texnologiyalarini keng joriy etish o'zining ijobiy samarasini beradi, deb hisoblaymiz. Innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish yo'nalishida yoshlarning innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun investitsiya jamg'armalari va akselerator dasturlarini rivojlantirish zarur. Banklar tomonidan innovatsion loyihalarga nisbatan qulay kredit sharoitlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga hissa qo'shadi. Moliyalashtirish jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda yechish choralari orqali yoshlar tadbirkorligida investitsiya faolligini oshirish mumkin. Bunda davlat siyosatining samarali ijrosi, xususiy sektor bilan hamkorlik va raqamli

7 Muallif ishlanmasi.



transformatsiya muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, yoshlarni moliyaviy savodxonlik va biznesni rejalashtirish ko'nikmalari bilan ta'minlash investitsiya loyihalarining barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 апрелдаги ПҚ-5088-сон “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зоналари фаолиятини ташкил этиш ҳамда ёшларнинг тадбиркорликка оид ташаббусларини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.
2. Каримов Ш. “Ёшлар тадбиркорлигини молиялаштириш механизмлари ва банк кредитлари роли” мавзусидаги PhD диссертацияси автореферати. Тошкент., 2020 й. 34 б.
3. Мирзаев О. “Кичик ва ўрта бизнес лойиҳаларини банк кредитлари орқали молиялаштириш муаммолари ва ечимлари” мавзусидаги PhD диссертацияси автореферати. Тошкент., 2019 й. 33 б.
4. Икромов С. “Саноат зоналарида инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда молиялаштиришнинг иқтисодий самарадорлиги” мавзусидаги DSc диссертацияси автореферати. Тошкент., 2019 й. 33 б.
5. John Smith. “Youth Entrepreneurship Financing through Bank Credits: Risk and Opportunity Management”. 2018. Journal of Small Business Finance.
6. Mayank Jain, Dr. Robin Gravesteijn, Zamid Aligishiev and Richard Last. The United Nations Capital Development Fund (UNCDF). YOUTH ENTREPRENEURSHIP AND FINANCIAL INCLUSION: OUTLOOK FOR ASEAN AND SAARC. [UNDP-UNCDF-2018-Youth-Entrepreneurship-and-Financial-Inclusion-ASEAN-SAARC.pdf](#). 2018.
7. Zamid Aligishiev and Dr. Robin Gravesteijn. UN Capital Development Fund. YOUTH ENTREPRENEURS ENGAGING IN THE DIGITAL ECONOMY THE NEXT GENERATION. [UNDP-RBAP-Youth-Entrepreneurs-Engaging-in-Digital-Economy-2020.pdf](#). 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
